

# “TURKIY XALQLAR FOLKLORINING OIYOSIY O‘RGANILISHI MASALALARI”

mavzusida xalqaro ilmiy-nazariy anjuman

## TURKIY XALQLAR FOLKLORIDA NAQL JANRINING BADIY EVOLYUTSIYASI

**Sayyora Bazarbaevna BEKCHANOVA**

*NukusDPI O‘zbek adabiyoti kafedrasida dotsenti,  
Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori(PhD)*

**DOI:** <https://doi.org/10.5281/zenodo.15290622>

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada turkiy xalqlar folkloridagi naql janrining badiiy evolyusiyasi haqida so‘z yuritiladi. Bunda asosan naqlarning yozib olinishi, o‘rganilishi va rivojlanish xususida aytiladi. Shuningdek, naqlarning turkiy xalqlar folkloridagi tahlili masalasi bayon qilinadi.

**Kalit so‘zlar:** turkiy, naql, badiiy, evolyusiyasi, xalq, maqol.

**Аннотация:** В данной статье говорится о художественной эволюции повествовательного жанра в фольклоре тюркских народов. В основном это относится к записи, изучению и развитию повествований. Также описывается вопрос анализа наков в фольклоре тюркских народов.

**Ключевые слова:** тюркский, повествовательный, художественный, эволюция, народный, пословица.

**Abstract:** This article discusses the artistic evolution of the narrative genre in the folklore of the Turkic peoples. This mainly concerns the recording, study and development of narratives. It also describes the issue of analyzing naks in the folklore of the Turkic peoples.

**Key words:** Turkic, narrative, artistic, evolution, folk, proverb.

Turkiy xalqlar yaratgan badiiy ijod namunalari ularning o‘tmishdagi e‘tiqodi va dunyoqarashini o‘rganishda, folklor janrlarida ilgari surilgan ilg‘or g‘oyalar shu xalq qadriyatlarini tasavvur etish va bilib olishda asl manba bo‘lib xizmat qiladi.

Folklor namunalarini yozib olishdagi dastlabki tajribalar XI asrdan boshlab ko‘zga tashlanadi. Mahmud Qoshg‘ariyning «Devonu lug‘otit turk» asaridagi xalq og‘zaki ijodi namunalari buning yorqin misolidir. Asarda turkiy xalqlar haqida: «Alloh taolo saltanat quyoshini turklar burjiga ko‘tardi. Falakni ham shular mulkiga moslab aylantirdi. Ularni turk deb atadi, mulkka ega qildi, ularni zamonamizning xoqonlari qilib ko‘tardi. Zamon ahlining ixtiyor jilovini shular qo‘liga topshirdi, xalqqa bosh qildi, ularni to‘g‘ri yo‘lga yurishga qodir etdi. Bularga qarashli kishilarni g‘olib qildi. Bularga yaqin bo‘lish uchun eng asosiy yo‘l – ularning tillarida so‘zlashishdir, chunki ular bu tilda so‘zlashuvchilarga yaxshi quloq soladilar, o‘zlarini yaqin tutadilar, ularga zarar bermaydilar» [Mahmud Qoshg‘ariy.11:21].

Mahmud Koshg‘ariy turkiy so‘zlarning lug‘aviy ma‘nosini izohlash maqsadida qo‘shiq, maqol, afsona kabi folklor namunalaridan ham foydalangan. Bu foydalanish

# “TURKIY XALOLAR FOLKLORINING QIYOSIY O‘RGANILISHI MASALALARI”

mavzusida xalqaro ilmiy-nazariy anjuman

jarayonida qomusiy olim juda ko‘plab janrlarnini ham yozib olinishiga muvaffaq bo‘lgan. Chunki qaysiki hududga borsa, o‘sha hududdagi xalq og‘zaki ijodiga doir har bir namunalarni to‘liq yozib olgan va bularni izohi bilan o‘z asarida keltirib ketadi. «Men turklar, turkmanlar, o‘g‘uzlar, chigillar, yag‘molar, qirg‘izlarning shaharlari, qishloq va yaylovlarini ko‘p yillar kezib chiqdim, ularning eng go‘zal so‘zlari va hikmatlarini to‘pladim. Turli xil lug‘at xususiyatlarini o‘rganib aniqlab chiqdim. Men bu ishlarni til bilmaganim uchun emas, balki bu tillardagi har bir kichik farqlarni ham aniqlash uchun qildim. Bo‘lmasa, men tilda ularning eng yetuklaridan, eng katta mutaxassislaridan, xush fahmlaridan, eski qabilalaridan, jang ishlarida usta nayzadorlaridan edim. Ularga shuncha diqqat qildimki, turklar, turkmanlar, o‘g‘uzlar chigillar, yag‘molar va qirg‘iz qabilalarining tillari butunlay tilimga jo bo‘ldi. Ularni har tamonlama puxta bir asosda tartib soldim»[Mahmud Qoshg‘ariy.11:22].

Unda XI asr og‘zaki adabiyoti namunalari bilan eng qadimgi davrlarda, hatto, eramizdan oldingi zamonlarda yaratilgan, asrdan-asrga, avloddan-avlodga ko‘chib yurgan ko‘plab xalq maqollari, rang-barang qo‘shiqlari, afsona va naqlari to‘plangan. Asarda to‘plangan ma‘lumotlar haqida Mahmud Qoshg‘ariy: «Men bu kitobni maxsus alifbo tartibida tuzdim, hikmatli so‘zlar, saj‘lar, maqollar, qo‘shiqlar, rajaz va nasr deb atalgan adabiy parchalar bilan bezadim»[ Mahmud Qoshg‘ariy.11:22], – deb qayd etadi. Va yana davom qilib yozadi: «...Men har bir qabilaga mansub so‘zlarning yasaliş xususiyatlarini va qanday qo‘llanilishini qisqacha izohlab ko‘rsatish uchun alohida yo‘l tutdim. Bu ishda misol tariqasida turklarning tilida qo‘llanilib kelgan she‘rlardan, shodlik va motam kunlarida aytiladigan hikmatli so‘zlaridan, maqollaridan keltirdim, toki ulardan foydalanuvchilar naql qiluvchilarga, naql qiluvchilar esa, o‘z navbatida, shu tilda so‘zlovchilarga va tinglovchilarga yetkazsin. Shuning uchun ham bularning hammasini mazkur asarda to‘pladim. Bu kitob yangiliklar berishda qiyomiga, qiymat va muhimlikda esa poyoniga yetdi»[Mahmud Qoshg‘ariy.11:25]. Bu qayd-e’tiroflaridan ko‘rinadiki, asarda muallif nafaqat tilshunos olim, balki o‘z davrining adabiyotshunosi, etnografi va folklorshunosi, eng asosiysi, qomusiy bilimdoni bo‘lgan.

Naqlar folklor to‘plamlari, xalq kitoblari, tarixiy manbalar, shuningdek, hind xalqining «Panchatantra», «Kalila va Dimna» asarlar, hamda qadimgi manbalar orqali bizgacha yetib kelgan. Yozma adabiyotdagi X asrning yirik muarrix Abu Bakr ibn Ja‘far Narshaxiyning «Buxoro tarixi», Mahmud Koshg‘ariyning «Devonu lug‘otit

# “TURKIY XALOLAR FOLKLORINING OIYOSIY O'RGANILISHI MASALALARI”

mavzusida xalqaro ilmiy-nazariy anjuman

turk», Rabg'uziyning «Qisasi Rabg'uziy», Alisher Navoiyning «Tarixi anbiyo va hukamo», «Tarixi muluki Ajam», «Nasoyimul muhabbat», Abu Tohirxo'janing «Samariya», Xojaning «Miftoh ul-adl», «Gulzor», Gulxaniyning «Zarbulmasal» asarlarida bir qator hikoyatlar borki, ularni naql janri namunasi sifatida e'tirof etish zarur. Zero, Xojaning «Miftoh ul-adl», «Gulzor» asarlaridagi «Ayozi», «Chumchuq» naqlari. Gulxaniyning «Zarbulmasal» asaridagi «Toshbaqa bilan chayon», «Maymun va Najjor», «Tuya bilan Bo'taloq» kabi hikoyat va masallarda aynan naql janrining keng ma'noda yozma adabiyotdagi namunalarini ko'rish mumkin.

Navoiy asarlarida tarixiy ma'lumotlar bilan bir qatorda, o'sha davrda xalq orasida keng tarqalgan naql, afsona, rivoyat va hikoyatlar keltirilishi o'tmish og'zaki ijodida va yozma adabiyotda keng ma'nodagi, ya'ni juft janrli naql-hikoyatlarning tarqalganligini dalolatlaydi.

Demak, o'tmishda yaratilgan adabiy, tarixiy va diniy manbalarda keltirilgan naqlar o'zbek xalq nasri janrlar tarkibining shakllanishi va tarixiy taraqqiyotini o'rganishda muhim rol o'ynaydi. Shu bilan birga, bu materiallar yozma adabiyotdagi naqlar syujet tizimining genetik ildizlari va manbalarini keng ko'lamda tadqiq etishga asos bo'ladi. «Arpa ekan arpa olar, bug'doy ekan bug'doy»[ Shomaqsudov Sh., Shorahmedov Sh. 16:21] naql kelib chiqishi bilan bog'liq hikoyani Nosiriddin Burhoniddin o'g'li Rabg'uziyning «Qissai Rabg'uziy» va XVI asrda ijod qilgan Abdulvahobxo'ja o'g'li Poshshoxojaning «Miftoh ul-adl» asarida uchratamiz.

Naql janrining genezisi va badiiy evelyusiyasi haqida fikr bildirar ekan bunda, ikki manba hal qiluvchi rol o'ynaganligini folklorshunos K.Imomov shunday izohlaydi: «Birinchisi xalqning hayot tajribalari, dono falsafasi, ikkinchisi yuqorida nomi keltirilgan shu kungacha ma'lum va mashhur hind xalq kitoblari («Panchatatra»,«Kalila va Dimna») tarjimalari, o'zbek xalq ertaklari, maqollaridir»[ Imomov K.7:214].

Boshqurd folklorshunosligida F.Nadrshina nasriy janrlarni tipik xususiyatlariga qarab tasnif qiladi [F.Nadrshina F.13:36]. Turkman folklorshunosligida A.Baymyradov «Turkman xalq og'zaki ijodi nasrining tarixiy evelyusiyasi» kitobida mustaqil janrlar sifatida ko'plab janrlar ya'ni: mif, afsona, rivoyat va hikoyatlarga to'xtaladi [Baymyradov A.2:157].

Uyg'ur folkloristlari kichik epik asarlarni ertak va ertak bo'lmagan nasr deb ikkiga ajratadilar. Birinchisiga ertakning hamma turlarini kiritib, ikkinchi guruhga: rivoyet, epsanə, bolmishlarni jamlaydi[15:169].

# “TURKIY XALQLAR FOLKLORINING QIYOSIY O‘RGANILISHI MASALALARI”

mavzusida xalqaro ilmiy-nazariy anjuman

Folklorshunos S.Qasqabasov qozoq xalq og‘zaki ijodi epik turlarini a) tarixiy (davriy holatda); b) boshqa xalq folklor janrlari bilan qiyosiy ravishda (tipologik); v) milliy tarixiy o‘ziga xosligi va qozoq xalqining folklor asarlari asosida tizimli o‘rganganligini qayd etish lozim [Qasqabasov S.8:170]. Olim o‘zining bu fikrlarini izchil davom ettirib, tasnif yuzasidan qarashlarini quyidagicha bayon qiladi: «Eger qazaq xalq prozasıyn onıñ bırgıng‘ı zamanda atqarg‘an qızmetine qarap toptastıgıyp, saralasaq, onda ol ılken yeki topqa belineı. Biri – ayqın kereınetin estetikalıq jəne g‘ıbrattıq funksiya atqaratıyn janrlar (erteginiñ bar tıri, mısal, xıkayat pen əpsanañ key tıri). Bılar kerkemdelgen proza. Yekinshisi – estetikalıqtan basqa qızmet atqaratıyn prozalıq janrlar (añız, əngime, xıkaya, mif). Al bıl aytılg‘andar – kerkemdigi qarapayım proza» [Qasqabasov S.9:61].

Turkiy xalqlar folklorida ko‘pchilik janrlarning bir xil atalishi yoki har xil atalish holatlari kuzatiladi. Masalan: rivoyat-rivayat, aňız, afsona-əpsana, əpsana-xıkayat, og‘zaki hikoyala, bolmısh, xekayat va xıkaya.

Naqlar turkiy folklorshunoslikda ham ma‘lum darajada o‘rganilgan. F.Nazershina boshqird [Nazershina F. 13:133], S.Qasqabasov qozoq [Qasqabasov S.10:159], va turkman folklorshunosi A.Baymiradovlar turkman xalqlari [Baymiradov A. 2:157] ham nasriy asarlarni tadqiq etishgan. Qirg‘iz tadqiqotchisi T.Tanaev xalq nasri yuzasidan tadqiqotlar olib borgan [Tanaev T. 14:80].

Qirg‘iz folklorida naqlar «ulamısh» deb yuritiladi. Bularda ham boshqa janrlar naql ichida qorishiq holatda yurganligini ko‘rishimiz mumkin. «Ulamısh, ulama, aňız – eldik oozeki chıgarmachılıkta keñiri taragan janr. Bir top belgileri tarabıynan legendaga o‘tə jakın turat, biroq ayırmalanuuchu bətənehölygü bar, al – tarıxyıy insandar, tarıxyıy okuyalar, kərynyshter tuuraluu, jer-suu attarğymın kelip chıgıshıy jənyndə tarıxyıy bayandoogo, chınydykka jakınyıgaak chechmelöge araket kыlyngandygy jagıynan legendaga karaganda fantaziyan bir top chetteyt. Birok legenda, jomok, ulamısh degen tyshynykterdy tak chek aralap bəlygge mymkyn bolbogon uchurlar kezdeshet, demek mynday belyshtyryy bir top sharttuu» [Bayjigitov K. 3:76]. Qirg‘iz folkloridagi «Nan jənyndə ulamısh» naqli buning yorqin dalilidir.

Turk xalqida esa naqlar «anlati, anlatim, nakil» [17:118] sifatida keltiriladi. «Xalq tamonidan to‘qilgan va avoddan-avlodga o‘tib kelayotgan og‘zaki hikoya, hikmat». Turkchada esa izohi quyidagicha: «Anlatı veya kıssa; roman, hikāye, masal, senaryo vb. kurgusal veya kurgusal olmayan edebî türlerde bir olay dizisini anlatma biçimidir. Anlatı insan yaratıcılığının ve toplumu etkileme sanatının bir

# “TURKIY XALOLAR FOLKLORINING OIYOSIY O'RGANILISHI MASALALARI”

mavzusida xalqaro ilmiy-nazariy anjuman

yüzüdü»[17:118]. Gagauzlarda ertaklarga nisbatan nag'ыл (masal)[5:12] atamasi qo'llaniladi.

Qoraqalpoq xalq nasri janr jihatdan rang-barang bo'lib, ming yillar davomida xalqning ma'naviy dunyosini boyitib kelayotgan qadriyatlardan biri hisoblanadi. Bu masala ahamiyatini o'z vaqtida anglab, shu yo'nalishda ilmiy tadqiqotlarini boshlab bergan N.Dao'qaraev[7], Q.Ayymbetov, O.Kojurov[Ayymbetov Q., Kojurov O.1:63] va boshqa olimlar epik janrdagi asarlarni lirik janrdan alohida olib qarashga harakat qildilar.

Folklorshunos olim N.Dao'qaraev o'zining 30-40-yillardagi xalq og'zaki ijodi bo'yicha olib borgan tadqiqotlarida qoraqalpoq folkloriga bag'ishlangan kitobidagi katta bir bo'limni «Қарақалпақ аўыз әдебиятының тематикасы хәм турлары» tashkil qiladi deydi.

S.Baxadirova xalq nasriga bag'ishlangan maqolasida bu janrlarning atama sifatidagi izohlariga to'xtalib: «Бүгинги күнге дейин толық өз изертлениўин таппаған, және сабақлықларда, бағдарламаларда, илимий мийнетлерде еле алжасықлы пикирлер менен жасап киятырған жанрлар бар. Олар әпсана, аңыз, легенда, миф, халық гүрриңлери» [ Баҳадырова С. 4:110], – deb yozadi hamda ularni o'rganishga yo'naltiruvchi fikrlar bilan birga, xalq nasri janrlarining o'ziga xos xususiyatlarini aniq va ravshan ochib berish vazifalari nimadan iborat ekanligini ham ko'rsatib o'tadi.

Xalq orasida va turkiy xalqlarning har birida turlicha nomlangan, ilmiy adabiyotlarda «naql» deb yuritiluvchi og'zaki nasrga oid janr haqida ko'pgina bildirilgan fikrlarni jahon, va turkiy xalqlar tadqiqotchilari ishlarida kuzatib, tadqiqotimiz uchun mustahkam ilmiy asoslangan naql janrining yozib olinishi va rivojlanish bosqichlarini hamda istilohiy ma'nolarini ochib berishga harakat qildik.

## Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Айымбетов Қ., Кожуров О. Қарақалпақ әдебиятының түрлери // Қарақалпақстан әдебияты хәм искусствосы. – Торткуль, 1939. – № 4,5 (38). – Б. 63 (Ушбу журнал ЎзР ФА ҚҚ бўлими кулёмалари фондида сақланган. Инв. № 135201; № 3405).
2. Баймырадов А. Туркмен фольклор прозасын тарихы эволюциясы. – Ашгабат, 1982. – Б.153-157.
3. Байжигитов К. Кыргыз мифтери, уламыштары жана легендалары. – Фрунзе, 1985. – Б. 76.
4. Баҳадырова С. Қарақалпақ халық прозасы: миф, әпсана, аңыз// ЎзР ИА ҚҚБ Хабаршысы. – Нөкис, 2007. – № 1. – Б. 107-110.
5. Гагауз фольклору. – Бакы: Көнчлик, 1996. – Б.12.
6. Дәўқараев Н. Шығармаларының толық жыйнағы.–Нөкис: Қарақалпақстан, 1977. – Т. II. I бөлим. – Б.

# “TURKIY XALOLAR FOLKLORINING OIYOSIY O'RGANILISHI MASALALARI”

mavzusida xalqaro ilmiy-nazariy anjuman

7. Имомов К. Ўзбек халқ насри поэтикаси. – Тошкент: Фан, 2008. – Б. 214.
8. Қасқабасов С. Қазақ халық прозасы. – Алматы: Мектеп, 2002. – Б.170.
9. Қасқабасов С. Ойөріс. – Алматы: Жібек Жолы, 2009. – Б. 61.
10. Касқабасов С. Казахская сказочная проза. – Алмата: Наука, 1990. – С. 158-159.
11. Махмуд Қошғарий. Туркий сўзлар луғати (Девону луғотит-турк). I жилд. Тўлдирилган ва ислох қилинган иккинчи нашри. – Тошкент: Мумтоз сўз, 2016. – Б. 21.
12. Надршина Ф. Башкорт халық риуайт һәм легендалары// Башкорт халық ижады. – Өфо, 1980. – С. 6-36.
13. Назершина Ф. Халық хатере. – Уфа.: Башкортстан китап нашрияты, 1986. – Б. 129-133.
14. Танаев Т. Эпикалык жанрлар. 2-китеп. – Ош, 1999. – Б. 78-80.
15. Уйгур халик егиз ижадийти. – Алмута, 1983. – С. 120-169.
16. Шомақсудов Ш., Шорахмедов Ш. Хикматнома. – Тошкент, 1990. – Б. 20-21.
17. Ўзбекча-туркча ва Туркча-ўзбекча изоҳли луғат. – Тошкент, 1997. – Б.118.